
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanadi

“Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, 2023 yilda:

muhtoj shaxslar zamonaviy oyoq protez-ortopediya buyumlari bilan;

“Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan va I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari bilan bepul ta'minlanadi.

2023 yil 1 sentyabrdan nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitasiya vositalari bilan ta'minlashda tibbiy xulosa talab qilinmaydi.

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar va ularga g'amxo'rlik qiluvchilar davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanadi, mansabdor shaxslar qabuliga navbatsiz kiradi.

2023 yil 1 maydan shifoxonalarda davolanayotgan nogironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarga:

bolaning yonida bo'lish uchun sharoit yaratiladi;

mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi va bepul ovqat beriladi.

Pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari bolani nogironligi bo'lgan shaxs deb topganda ularga pensiya tayinlashda qaytadan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborish bekor qilinadi.

“Yuridik yordam” axborot tizimida nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul huquqiy yordam berish uchun alohida murojaat bo'limi yaratiladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-07-20 19:01:18